



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoira Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida)	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlarini (Learning outcomes) asosida	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdorovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	190
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990-yillar)	195
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalari	199
<i>Qo'ziyeva Shahnoza Muhammadsoli qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda mumtoz musiqaning o'rni va ahamiyati	202
Baymanova Feruza Abralovna	
Ommaviy jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik asoslari	207
Xayitova Ulfatoy Tursunovna	
Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	211
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Muhandislik ta'limida Bernulli va Puasson taqsimotlarini texnologik jarayonlar misolida o'qitish metodikasi	216
Qo'ziboyeva Nozima Yoqubjon qizi, Maxmanazarov Sardor Toirjon o'g'li, Saydullayev Asadbek Xayrullo o'g'li	
Психолого-педагогические основы обучения теме “производная” в курсе алгебры и начал анализа президентской школы	225
Шахноза Холмуродова Зоир кизи	
O'qish savodxonligi darslarida Bloom taksonomiyasi va 4K kompetensiyalarining integrativ modeli	234
Farsaxonova Mastura Jalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari va monitoring tizimini takomillashtirish: indikatorlar asosidagi boshqaruv modeli	241
Jo'rayeva Dilrabo Kamoliddin qizi	
Maxsus mashqlar yordamida start tezligini oshirish metodikasi	244
Sitara Elova Axmatqulovna, Panjiyeva Gulzoda Eshdaviyat qizi	

O'QUVCHILARDA MILLIY G'OYA VA MAFKURANI RIVOJLANTIRISHDA MUMTOZ MUSIQANING O'RNI VA AHAMIYATI

Baymanova Feruza Abralovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti "Musiqiy ta'lim" kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya: "Yangi O'zbekiston"da mumtoz musiqa san'atiga qaratilayotgan e'tibor hamda musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlari orqali yosh avlod qalbida milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, mumtoz musiqa namunalarining o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy-estetik did va mafkuraviy immunitetni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy; madaniy-ma'rifiy; tarixiy; milliy qadriyatlar; ma'naviy tarbiya; musiqa ta'limi; estetik tarbiya; mafkuraviy immunitet.

Abstract: The theoretical and practical foundations of developing national ideas and ideology in the minds of the younger generation through the educational potential of classical music and the growing attention paid to this art form in the "New Uzbekistan" are highlighted. The study also analyzes the role of classical music in fostering respect for national values, spiritual and aesthetic taste, and ideological immunity among students.

Key words: socio-economic; cultural and educational; historical; national values; spiritual education; music education; aesthetic education; ideological immunity.

Аннотация: Освещены теоретические и практические основы формирования национальной идеи и идеологии в сознании молодого поколения посредством воспитательных возможностей классической музыки и внимания, уделяемого данному виду искусства в "Новом Узбекистане". Проанализировано значение классической музыки в развитии уважения к национальным ценностям, духовно-эстетического вкуса и идеологического иммунитета у учащихся.

Ключевые слова: социально-экономический; культурно-просветительский; исторический; национальные ценности; духовное воспитание; музыкальное образование; эстетическое воспитание; идеологический иммунитет.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmoni 5-yo'nalishi 71–78-maqsdlariga tayangan holda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida, ya'ni yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, "Yangi O'zbekiston" yoshlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, milliy musiqa san'atimizga bo'lgan mehr-muhabbatni oshirish, ota-bobolarimiz tomonidan bizga qoldirilgan ma'naviy-musiqiy merosimizni butun dunyoga tanitish va targ'ib qilishda aynan milliy musiqamizning o'rni beqiyosdir.

Mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqloq g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi O'zbekistonda jamiyat ma'naviy-axloqiy rivojlanishining muhim omiliga aylandi. "Hozirgi yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda".

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi sharofati bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar natijasida tarixiy, milliy, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, o'rganish hamda ulardan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda keng foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Jamiyat taraqqiyotini yuqori dara-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



jaga olib chiqish muammolari bosqichma-bosqich hal etilmoqda. Buni musiqa ta'limi sohasida yaqqol ko'rish mumkin.

Musiqa sohasida deyarli barcha o'quv dasturlari va o'quv mashg'ulotlari repertuarlari Yevropa madaniyati ta'sirida yozilgan hamda kommunistik mafkura bilan yo'g'rilgan asarlardan iborat edi. Muayyan xalqning milliy ruhi, madaniyati, tarixi, turmush tarzi, urf-odatlarini, hayotiy falsafasi va, eng muhimi, shu xalqning qalbi hamda milliy qiyofasini o'zida mujassam etuvchi milliy musiqa, mumtoz va maqomlarni o'rganish, ularni yoshlar qalbiga, ongi va shuuriga singdirishga e'tibor atayin sust edi. Albatta, eski mafkuradan qutilish, ta'lim-tarbiya mazmunini mustahkamlash g'oyalari hamda milliy istiqlol mafkurasi negizida shakllantirish birdaniga amalga oshiriladigan ish emas. Bu yo'lda dastlabki qadamlar tashlandi, eng asosiysi, uni amalga oshirish tamoyillari va nazariy asoslari belgilandi.

Bizga ma'lumki, u yoki bu xalq, millat to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun uning madaniy merosi, san'ati va adabiyotidan xabardor bo'lish kifoyadir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqning muayyan tarixiy bosqichlarini, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy turmush tarzini, hayotiy qarashlari, orzu-umidlari hamda urf-odatlarini o'zida mujassam etgan xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom ashulalarini o'rganish yetarlidir. Chunki xalq musiqa san'ati umuminsoniy g'oyalarni tarannum etishi bilan birga milliy g'oya va mafkuraning eng muhim tendensiyalarini ham ifoda etadi.

Xalq musiqa merosiga mansub turli janrlarda yaratilgan namunalarni o'rganish va ularning g'oyaviy-badiiy mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda Vatan, tabiat, insoniy fazilatlar, halollik, mehnatsevarlik, ona tabiatga va insonlarga mehr-muhabbat, tinchlik, adolat hamda Vatan ravnaqi uchun o'zini safarbar etish g'oyalari tarannum etiladi. Ana shunday badiiy va yuksak qiymatga ega san'at namunalari yosh avlodni milliy g'oyalar va mafkura ruhida, qolaversa, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan, musiqiy ta'lim-tarbiyaning eng asosiy shakllantiruvchi bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni milliy musiqa merosimizning eng noyob namunalari hisoblanmish xalq qo'shiqlari, ashulalari, kuylari va xalq mumtoz musiqasining asosi bo'lgan maqom san'ati bilan chuqur tanishtirib borish, shu orqali ularda yuksak madaniyat va ma'naviyatni shakllantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmog'i lozim. Bu maqsadni amalga oshirish, birinchidan, ta'limning milliy negizini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, yosh avlodning milliy o'zligini teranroq his etishiga olib keladi, uchinchidan esa yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash imkoniyatlarini oshiradi. Bu esa umumta'lim maktablarining musiqa fani bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklari repertuarlariga kiritilgan, kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar repertuarlarini qayta ko'rib chiqishni, o'zbek xalq qo'shiqlari va mumtoz musiqa haqidagi bilim hamda malakalarni berishga mo'ljallangan o'quv materiallarining ma'lum sinf va chorak mavzulari doirasida cheklanib qolmasligiga e'tibor qaratishni talab qiladi.

Nisbatan murakkab ijod mahsuli bo'lgan mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni sinf va sinfdan tashqari shakllarda uzviy va tizimli ravishda yo'lga qo'yish zarur. O'z-o'zidan ravshanki, bu jarayonda xalq musiqa ijodiyoti, xususan, mumtoz musiqa haqida beriladigan o'quv materiallari hajmini kengaytirish, mazmunan boyitish va o'quv soatlari miqdorini ham ko'paytirish lozim bo'ladi.

O'zbek xalqining musiqa merosida xalq qo'shiqlari qatorida bebaho ijod namunasi bo'lgan mumtoz kuy-qo'shiqlar ham salmoqli o'rin egallaydi. O'zbek mumtoz qo'shiqlari milliy qo'shiqchilik rivojini yuksaltirishda eng muhim asos bo'lishi bilan birga, shaxs, xususan, o'sib kelayotgan o'quvchi-yoshlarning badiiy-estetik, madaniy va ma'naviy tarbiyasida ham yuksak ta'sirchanlik kasb etadi. Umumta'lim maktablaridagi musiqa darslari va darsdan tashqari faoliyatda aniq maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni o'zbek maqom tarkibiga kiruvchi ashulalar hamda cholg'u ijrochiligi namunalari bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda xalq musiqa merosiga hurmat, qiziqish, ularni mehr bilan o'rganish va kelgusida davom ettirish ko'nikma hamda malakalarini hosil qilish mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy yoshlar tarbiyasiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmani bajarish, ya'ni ularda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishga erishiladi.

Shuni e'tirof etish joizki, o'zbek xalq mumtoz ashulalari va qo'shiqlari negizida xalq og'zaki ijodi yoki mumtoz she'riyat namunalari, asosan g'azal janriga oid she'rlarga xos adabiy matn yotadi. Bundan tashqari, hozirgi zamonaviy bastakorlarning ham ko'pchiligi xalq qo'shiqlari hamda mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlari ohanglaridan ijodiy ilhomlanib yangi kuy-qo'shiqlar yaratib kelmoqda. Mumtoz adabiyot vakillari tomonidan yaratilgan she'riy asarlar yuksak ijod namunasi sifatida ko'p asrlar davomida xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelinmoqda. Ularning yuksak badiiy mahorat mahsuli ekanligi, mazmunida ifoda etilgan g'oyalar, ilohiy ishq tarifi bayon etilgan lirik kechinmalar, nozik his-tuyg'ular, nafis tasvirlar, o'xshatishlar va tasbehtar har qanday inson qalbida o'ziga xos hissiyotlar uyg'otadi. Bunday asarlarni qayta-qayta o'qigan inson qalbida har safar yangi tuyg'ular paydo bo'ladi. Shoirning betimsol xayoloti, o'z tasavvurida yaratgan mashuqasining olijanob fazilatlarini va maftunkor qiyofasi o'quvchi qalbini ham rom etadi.

Bunday she'riy matnga bastalangan kuy-musiqaning sehrli ta'siri uyg'unlashib, inson hissiyotiga emosional ta'sir etish jihatidan estetik tarbiyaning qudratli vositalaridan biriga aylanadi. Musiqa qo'shiqning badiiy-emotsional ta'sirchanligini va estetik tarbiyaning mavqeini kuchaytiradi. Bu esa ijrochilarni ham, tinglovchilarni

ham badiiy-estetik zavqlantiradi, qalbida olijanob his-tuyg'ular uyg'otadi, hayotga muhabbatini oshiradi, go'zallikka intilish va go'zallik yaratishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Bularning barchasi estetik tarbiyalanganlik tushunchasida o'z in'ikosini topadi. Shuning uchun ham mumtoz musiqa asarlaridan, ularning ma'naviy va estetik tarbiya imkoniyatlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish yaxshi samara beradi. Bu o'rinda ashula matnidagi tarbiyaviy jihatlar, asarning musiqiy ijod mahsuli sifatidagi badiiy qimmat, tuzilishi, janriy xususiyatlari, ijrochilik talablari hamda ijrochilar imkoniyatlariga mosligi jihatidan o'quvchilarning musiqiy idrok etish imkoniyatlariga mos ravishda tanlash lozim. Shuningdek, ularni mohir ijodkorlar haqidagi ma'lumotlar bilan boyitish, imkon qadar mahoratli hofizlarning ijro yozuvlarini tinglatish va so'ngra tahliliy suhbatlar o'tkazishga jiddiy yondashish talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamizda mumtoz musiqa va maqom san'atini xalqimiz hayotiga, yoshlar ma'naviyatiga kengroq miqyosda olib kirish, ularni targ'ib va tashviq qilish bo'yicha bir qator ma'naviy-madaniy tadbirlar o'tkazib kelinayotgani quvonarlidir. Har yili o'tkaziladigan "Yosh maqomchilar", "Diyorim ohanglari", "Talantlarni izlaymiz", "Katta ashulachilar tanlovi", Komiljon Otaniyozov va Ma'murjon Uzoqov nomidagi ko'rik-tanlovlar, shuningdek, O'zbekiston Milliy konservatoriyasi hamda Toshkent madaniyat va san'at institutida mumtoz va maqom ijrochiligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'nalishlarining faoliyat yuritayotgani ijobiy baholanadi. Mumtoz musiqa va uning umumjahon musiqa madaniyatida, xususan, Sharq xalqlari madaniy hayotida tutgan o'rni, xalqlar o'rtasidagi mushtarak jihatlarni – cholg'ular turdoshligi, musiqiy atamalar va iboralardagi o'xshashlik, ijrochilik an'analari hamda rivojlanish tendensiyalarini ochib beradi. Shu maqsadda har 2-yilda o'tkazib kelinayotgan "Xalqaro maqom festivali" va "Sharq taronalari" xalqaro Samarqand festivalining ahamiyati ham beqiyosdir.

Bunday tadbirlarning foydali jihati shundaki, ularda uslubchi va nazariyotchi olim-musiqashunoslar maqom va mumtoz ijod, ularning shakllanishi, mushtarak jihatlari, ijro an'analari va uslublari haqida fikr bildirib, musiqa ilmi rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Mumtoz musiqadan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish borasida ham e'tiborga molik ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, san'atshunos olim R. Abdullayevning katta ashula janri, S. Begmatovning Farg'ona vodiysi qo'shiqchilik an'analari, O. Matyoqubovning og'zaki an'adagi professional (mumtoz va maqom) musiqa ijrochiligining nazariy masalalari haqidagi tadqiqotlari, shuningdek, F. Karamatov, X. Ikromov va T. G'ofurbekovlarning milliy musiqamizning mahalliy uslublari, ularning rivojlanish tendensiyalari hamda cholg'ular tarixi haqidagi ilmiy ishlari shular jumlasidandir.

Musiqa pedagogikasi va estetik tarbiya muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, adabiyot va san'at turlari vositasida ish tutish mohiyatan bir-biriga yaqin turadi. Ular san'atning muayyan shakllari bo'lgani va inson ruhiyatiga emotsional ta'sir kuchi jihatidan o'zaro yaqinligi sababli ish uslublari, shakl va mazmuni hamda tavsiyalarida ham o'xshashlik kuzatiladi. Aslida san'atning qo'shiqchilik bilan bog'liq turlarining bevosita adabiyot (she'riyat) bilan bog'liqligi ham bunda asosiy omil hisoblanadi.

Xalq qo'shiqchiligi va ayrim vohalarga xos janrlar vositasida estetik tarbiyalash muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, B. X. Madrimovning "Xorazm musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari", O. A. Vasilechenkoning "Maktab musiqiy-xor ijrochiligi jarayonida o'smir-yoshlarni estetik tarbiyalash asoslari", M. B. Qosimovning "Musiqiy folklor qo'shiqlari vositasida talaba-yoshlarni estetik tarbiyalash" kabi ilmiy izlanishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Biroq ushbu tadqiqotlarda o'quvchi-yoshlar hamda talaba-yoshlarni milliy musiqiy meros yoki uning ayrim turlari (folklor, mumtoz va maqom) vositasida milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash muammosi alohida ilmiy tadqiq etilmagan.

Xalq qo'shiqlari, mumtoz ashulalar va kuylar nafaqat xalq ijodi namunasi, balki xalqning mehr-muhabbatiga sazovor bo'lgan, bir necha asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib, o'z qimmatini yo'qotmagan adabiy-badiiy voqelikka mansub ijod mahsuli sifatida baholanishi zarur. Ayrim ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va uslubiy adabiyotlarda "xalq musiqasi" tushunchasi faqat folklor sifatida talqin qilinadi. Bu esa musiqa ta'limi mutaxassislari va badiiy havaskorlik to'garaklari rahbarlarining bir yoqlama ish tutishiga sabab bo'lmoqda. Biz esa xalq ijodiyotining yuksak namunasi bo'lgan, davr sinovlaridan o'tib, keng omma tomonidan e'tirof etilgan kuy-qo'shiqlarni tanlab olib, ularning tarbiyaviy va estetik qiymatini tahlil qilish, shu orqali o'quvchi-yoshlarning ma'naviy olamini boyitish hamda ularda milliy qadriyatlarga qiziqishni oshirishni asosiy maqsad qilib oldik. Chunki "mumtoz" atamasining asl ma'nosi ham "tanlangan", "yetuk", "e'tirof etilgan" degan ma'nolarni anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz tadqiqiy izlanishlarimizni olib borish jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga o'zbek musiqa merosi bo'yicha berilayotgan bilim va tushunchalar, amaliy ijrochilik bilan bog'liq o'quv materiallari mazmuni hamda mashg'ulotlar sifatini kuzatdik.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tahliliy xulosalarimiz bu borada jiddiy kamchiliklar va muammolar borligini ko'rsatdi. Bu, avvalo, umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan musiqa o'qituvchilarining o'zbek mumtoz musiqasi bo'yicha yetarli nazariy va amaliy ijrochilik malakalariga hamda pedagogik faoliyatga tayyor emasliklarida emasligi ma'lum bo'ldi. Buning asosiy sababi musiqa o'qituvchilari tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik oliy o'quv yurtlarida talabalarni mumtoz musiqa bo'yicha kasbiy tayyorlashga yetarli e'tibor berilmagani va zarur shart-sharoitlar yaratilmaganligidir. Mumtoz kuy-qo'shiqlarni og'zaki an'anadagi professional ijod namunalari sifatida e'tirof etilishi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, yarim yillik, hatto bir yillik tahsil talabalarni bu san'at yo'nalishi bo'yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun yetarli emas.

Qolaversa, mumtoz qo'shiq namunalari ijro etish keng diapazonli ovoz, yuqori ijrochilik mahorati va ular haqidagi nazariy ma'lumotlarni egallashni, shuningdek, o'quvchilarga o'rgatishning o'ziga xos metodikasi bo'yicha yetarli bilim va malakalarga ega bo'lishni talab etadi. Bu haqda taniqli san'atshunos olim T. G'ofurbekovning quyidagi fikrlari ham bizning mulohazalarimizni tasdiqlaydi: "O'zbek xalqi g'oyat boy va qadimiy musiqiy merosga ega. U maktablarimizda, oliy va o'rta ta'lim muassasalarida o'rgatilmasa, qayerda, qachon o'rganiladi? Ahvol shu tarzda ketaversa, bu bebaho boylik ta'lim va tarbiya tizimidan uzoqlashib, begonlashib ketmaydimi? ... Bugungi yoshlarimiz an'anaviy ma'nodagi musiqani, maqom va mumtoz kuy-qo'shiqlarni, ko'p ovozli hamda zamonaviy musiqani birdek bilishi, tushunishi zarur"¹.

Ushbu so'zlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa fani bo'yicha o'quv dasturi va rejasida 6-sinfda yil mavzusi "Mumtoz musiqa" deb nomlanadi. Faqat mana shu sinfning 1–2-choragida o'quvchilarga mumtoz musiqa haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Ajratilgan soatlar hajmi va o'quv materiallari o'quvchilarda bu bebaho san'at haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish uchun kamlik qiladi. To'g'ri, o'quv dasturida tinglash va kuylash uchun tavsiya etilgan repertuar tarkibida mumtoz asarlarga deyarli barcha sinflarda o'rin berilgan. Lekin tavsiya etilgan mumtoz asarlarni tinglash uchun zarur musiqiy "fonetika"larning mavjud emasligi bu masalaning dolzarbligicha qolishiga sabab bo'lmoqda.

Sanab o'tilgan muammolar respublikamizdagi mavjud ta'limning barcha bo'g'inlarida estetik tarbiyaga e'tiborni tubdan o'zgartirish, ayniqsa, musiqa ta'lim-tarbiyasida o'sib kelayotgan yosh avlodni birinchi navbatda milliy musiqa merosi, shu jumladan, mumtoz va maqom san'ati bilan chuqur tanishtirish, shu orqali ularda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish ishlariga jiddiy va mas'uliyat bilan yondashish lozimligini ko'rsatadi. Buning uchun mumtoz musiqa vositasida milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning o'ziga xos metodik tizimi ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi lozimligi o'z-o'zidan ayon.

Shulardan kelib chiqib, musiqa mashg'ulotlari jarayonida, xususan, umumta'lim maktablarida, ya'ni bizning ilmiy izlanishlarimiz manbai bo'lgan musiqa darslari va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash borasida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati mashg'ulotlarida bosh vazifa sifatida o'quvchilarni milliy musiqa merosi bilan chuqur tanishtirish, shu orqali ularda milliy ong, tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish lozim.
2. Estetik tarbiyaga xalqimizning milliy madaniy qadriyatlari va san'atiga tayangan holda yondashish zarur.
3. O'zbek xalqining tarixi, an'analari, urf-odatlarini mujassam etuvchi xalq qo'shiqlari bilan bir qatorda yuksak ijod namunalari bo'lgan mumtoz kuy-qo'shiqlardan foydalanishning shakl, usul va vositalarini aniqlash hamda joriy etish lozim.
4. Mumtoz musiqaga mansub turli janr va mavzulardagi kuy-qo'shiqlarning tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini yorituvchi dastur va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish zarur.
5. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limining dars va darsdan tashqari faoliyatida estetik tarbiyaning uzluksizligi va uzviyligini yo'lga qo'yish, respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimi oldiga qo'yilgan ustuvor maqsadlarga erishishni ko'zlab ish yuritish lozim.
6. Musiqa o'qituvchilari tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogika oliy o'quv yurtlarining musiqiy ta'lim ixtisosliklari o'quv rejasida "An'anaviy ijrochilik va maqom asoslari" hamda "O'zbek mumtoz qo'shiqchiligi" fanlarini o'qitish mazmuni va hajmini ko'paytirish, bo'lajak pedagoglarni mumtoz musiqa bilan ishlash faoliyatiga tayyorlash ishlarida tub burilish yasash zarur.

Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni turli musiqiy va ommaviy tadbirlar, konsertlar, ko'rik-tanlovlarga faol jalb etish, bu tadbirlarning konsert dasturlarida amaliy ijro yo'nalishi bo'yicha qatnashishlarini yo'lga qo'yish lozim. Aynan mana shu faoliyatda ularning o'z ustida mustaqil va individual ishlash hamda erishgan natijalarini keng jamoatchilik oldida namoyish qilishga bo'lgan intilishlari rivojlanadi. Bu o'z mazmuniga ko'ra "an'anaviylik"

tamoyillariga mos xususiyat bo'lib, talabani mumtoz kuy-qo'shiqlarni o'rganish borasida mustaqil shug'ullanish, izlanish, qidirib topish, o'zgaralar yordamidan foydalanish, xullas, o'z mahoratini takomillashtirib borishga olib keladi.

Ta'lim jarayonida mumtoz kuy-qo'shiqlarning bo'lajak musiqa o'qituvchilari tomonidan samarali o'zlashtirilishi ko'p jihatdan ushbu yo'nalishdagi faoliyatning qanday tashkil etilishiga bog'liq. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining yuksak badiiy qimmatga ega asar namunalari o'zlashtirish darajasi maktab faoliyati davomida o'quvchilarga asarning badiiy qimmatini baholay olish, ularni farqlash, she'riy matnda ifodalangan g'oyaviy-badiiy mazmunni anglashlari uchun zarur bilim va tushunchalarni berish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Umumta'lim maktablarida mumtoz namunalarni to'raligicha o'rgatish, o'quvchilar tomonidan ijro etishni shartli vazifa qilib qo'yish maqsadga muvofiq emas. Balki shunga erishish kerakki, o'quvchi mumtoz musiqani mukammal ijod namunasi ekanligini bilsin, badiiy saviyasi past va yuqori iste'dod mahsuli bo'lgan asarlarni farqlay olsin, qo'shiq, yalla, lapar yoki zamonaviy estrada qo'shiqlariga nisbatan mumtoz kuy-qo'shiqlar ancha "jiddiy", "murakkab" ekanligini, shu bilan birga, ijrochilikda ma'lum tajriba, mahorat va iste'dodni talab etishini his qilsin. Shuning uchun ham maktab musiqa darslarida tavsiya etilgan mumtoz namunalarni asosan tinglash, tahlil qilish, ijro uslublariga, har bir ijrochining mahorati, ovozdin foydalanish, ohangdorlik, o'ziga xos nola, qochirish kabi musiqiy bezaklarning o'z o'rnida qo'llanishi, usullariga (ritm) e'tibor qaratish asosiy o'rin tutadi. O'quvchilar yuksak badiiy qimmatga ega mumtoz kuy-qo'shiqlarni tanlash, ular haqida suhbatlar jarayonida asarlar ijrochilari va yaratilish tarixi haqida ko'proq bilishga qiziqadilar. Mana shu istakning o'ziyoy ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etishning eng muhim "boshlang'ich omillari"dan hisoblanadi.

Qayd etilganlar umumta'lim maktablarida mumtoz musiqa bilan o'quvchilarni tanishtirib borish mazmunini takomillashtirish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlash bilan birga, ta'lim-tarbiya tizimida barkamol avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, axloqiy yetuk, nozik didli, milliy g'oya va mafkura tamoyillariga javob bera oluvchi kelajagimiz bunyodkorlari sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shundan kelib chiqqan holda o'zbek mumtoz musiqa san'atining shaxs kamolotidagi o'rni va ahamiyatini, undan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishning mazmuni, mohiyati, shakl va uslublarini ishlab chiqishga harakat qildik. Bizga ma'lumki, har qanday qo'shiqda u yaralgan davrning o'chmas izi bo'ladi. Tarixiy, mumtoz, folklor sarasiga kiruvchi qo'shiq namunalari kishilarga yuksak estetik zavq-shavq baxsh etishi bilan birga, o'quvchi-yoshlarga xalq ruhiyati, o'ziga xos madaniyati, san'ati, turmush tarzi, urf-odatlar, etnik xususiyatlari, raqslari, cholg'ulari va milliy kiyimlari (liboslari) haqida mukammal bilim hamda tushunchalarga ega bo'lib borishlari uchun zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son² qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va qaror ijrosi, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning 5-yo'nalishi 71–78-maqsadlariga tayangan holda olib chiqilgan mavzumiz bugungi kunda o'z dolzarbligini belgilaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va imkoniyatlar eshigini ochib bergani, bu ulkan imkoniyatlardan yuqori darajada foydalanish zarurligini belgilab beradi hamda yurtimiz bayrog'ini yuqori marralarga ko'tarishda yoshlar uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Biz yoshlar ushbu bildirilayotgan ishonchga munosib farzand ekanligimizni isbotlaydigan, milliy mumtoz musiqa san'atimizning dunyoga dovrug'ini tanitadigan avlod bo'lish kuch-qudratiga egamiz. Yurtboshimizga munosib farzand bo'lishga va butun o'zbek millati yoshlarini ilm hamda ijod yo'lida birdam va hamqadam bo'lishga chorlab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmon. – 2022-yil 28-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi. – 2017-yil 8-fevral.
3. Qosimova Z.X. Talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (oliy o'quv yurtlari ma'naviy-ma'rifiy ishlari misolida): pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2004. – 117 b.
4. Alimasov V. Ommaviy madaniyat – og'u-mi? // "Ishonch" gazetasi. – 2018-yil 19-iyun.
5. Saidov U. Madaniyat sohasidagi globallashtirish jarayonlari va ma'naviy tahdidlar. – Toshkent: "Akademiya", 2011. – 56 b.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son qarori: <https://lex.uz/docs/-3581613>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.